

MAMLAKATIMIZDA ISLOM MOLİYASI VA BANKCHILIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Babamatov Tolib Xakimovich

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston
iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot
markazi”ning tadqiqotchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18325545>

So‘nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko‘plab mamlakatlar moliyachilarining so‘z boyligidan mustahkam o‘rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an‘anaviy bank xizmatlariga muqobil moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi. An‘anaviy bank tizimiga muqobil moliyalash shakllari mavjudligini bilish qiziqarli va foydalidir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlis palatalariga yo‘llagan Murojaatnomasida “Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi¹”, deb ta’kidlab o‘tdilar.

1960-yillarda Misrda islom bank tizimining paydo bo‘lishi olamshumul voqealik emas edi, ammo yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida ushbu soha barqaror rivojlanib kelmoqda. So‘nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko‘plab mamlakatlar moliyachilarining so‘z boyligidan mustahkam o‘rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, hattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSh va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an‘anaviy bank xizmatlariga alternativ moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Yillik 15-20 foiz o‘sish sur‘atiga ega Islomiy bank dunyo bo‘ylab o‘zining ufqlarini kengaytirdi va 75 dan ortiq mamlakatda o‘z muassasalariga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Islom Taraqqiyot Bankiga (ITB) 2003 yilda a‘zo bo‘lgan. Ushbu qisqa muddatli hamkorlik davomida ITB Guruhining O‘zbekistondagi portfeli ko‘p jihatdan Hukumat bilan faol hamkorlik tufayli jiddiy miqdorda o‘tdi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyaviy dasturlari qator ustuvor milliy loyihalarining moliyalanishi ma‘qullanishida namoyon bo‘ldi. Ayni paytda ITBning O‘zbekistondagi portfeli Markaziy Osiyo hududida eng yirik (1,8 mlrd. dollardan ziyod) hisoblanadi.

Islomiy moliyalashtirishning ananaviy moliyalashtirishdan asosiy farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo‘lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o‘zida namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka, hamkorlikka asoslangan. Quyidagi 1-jadvalda jahonda keng tarqalgan islom moliyasi instrumentlari haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

1-jadval

Islom moliyasi instrumentlari turlari²

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020 йил 29 декабрь

² Иқтисодий адабиётларни ўрганиш асосида муаллиф томонидан мустақил тузилди

Instrument nomi	Moliyalashtirishning mohiyati va mazmuni
Murobaha	bu tomonlar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi ustama haq evaziga bo'lishini anglatadi. Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi
Muzoraba	bu investor («Robbul mol») va tadbirkor («Muzorib») o'rtasidagi foydani taqsimlash shartnomasi. Muzoraba shartnomasida investor foydani kelishilgan nisbatda yoki foizda tadbirkor bilan taqsimlashga rozilik beradi.
Mushoraka	bu sherikchilikning bir shakli. Buni odatdagi kapital bozoridagi aksiyalarni sotib olishga o'xshatish mumkin, ammo qilingan investitsiyalar shariat tamoyillariga mos keladigan aksiyalar va moliyaviy qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar bilan cheklanishi kerak
Ijara	o'z nomi bilan, ijara yoki lizing shartnomasidir. Ijaraga berilgan mulk huquqi buyurtmachiga o'tkazish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, ijara shartnomasi «Ijara muntahia bi tamlik» (mulkdorlik bilan yakunlanuvchi ijara) deb yuritiladi
Takoful	arabchada «kafala» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berish ma'nosini beradi. Aniqroq aytganda, bu «takafala» fe'lidan kelib chiqib, o'zaro kafolat berish va bir-birini himoya qilish ma'nosiga ega. Shuning uchun, so'zma-so'z tarjima qilinganda, bu o'zaro yordamni anglatadi
Salam	xomashyo narxini darhol to'lash, xomashyoni esa kelishilgan kechiktirilgan muddatda yetkazib berish uchun sotib olishni anglatadi. Salam shartnomasida narx to'liq va oldindan to'lanadi. Ushbu turdagi shartnomalar xomashyo narxi o'zgarishi mumkin bo'lgan joylarda qo'llanilishi mumkin
Istisna	bu sotiladigan ob'ektni qurish, ishlab chiqarish yoki tiklash uchun belgilangan narx bo'yicha, belgilangan muddat davomida, tomonlar o'rtasida belgilangan xususiyatlarga ega ob'ektni moliyalashtirish shartnomasi
Sukuk	mulkchilik manfaatlarini ifodalovchi teng nominaldagi investitsiya sertifikati. Sukukni sarmoyadorlarga foyda keltiradigan va an'anaviy aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozga o'xshash Islom moliyalashtirish instrumenti deb tasavvur qilsa bo'ladi

Bunda islomiy banklar mijoz talabi bo'yicha ob'ektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, homashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyoti yotadi. Pul muomala vositasi sifatida ko'riladi, ya'ni pulni o'zini foizga yoki biron-bir naf/foyda evaziga qarz sifatida berish taqiqlanadi. Ijara yoki islomiy lizingni unga muqobil bo'lgan an'anaviy lizingga avtomobil sotib olishni solishtiradigan bo'lsak, an'anaviy bank avval siz bilan lizing shartnomasini tuzadi, keyin 25 foiz yoki bankni ixtiyoriga qarab

boshqa miqdorda oldindan to'lov oladi, keyin mijoz salon bilan avtomobil oldi-sotdi shartnomasiga asosan to'lovni amalga oshiradi. Keyin yillik 25 foiz (misol tariqasida) miqdorida ustama haqini hisoblab, sizga 3 yilga bir xil to'lovda oyma-oy to'lash jadvalini taqdim etadi. To'lov kechikadigan bo'lsa, unga nisbatan jarima sifatida komissiya undiriladi va u foydaga kiritiladi.

Islomiy bank esa sizning talabingizga asosan salon bilan avtomobil oldi-sotdi shartnomasini imzolaydi, to'lovlarni amalga oshiradi, keyin uni sizga ustiga foydasini qo'ygan holda ma'lum bir muddatga egalik huquqini oxirida o'tkazib berish sharti bilan ijaraga beradi. To'lov kechikkan holda jarima olish taqiqlanadi, lekin bu holatni suiiste'mol qilmaslik uchun intizomiy chora sifatida shartnomaga qo'shishga ruxsat etilgan. Biroq, an'anaviy bank tizimidan farqli o'laroq bu jarima qo'llanilgan holatda u foydaga olinmaydi va xayr-ehsonga ishlatib yuboriladi. Ko'rinib turganidek, birinchi holatda an'anaviy bank sizga pulni foizga beryapti, ikkinchi holatda esa bank sizga o'z mulkini ijaraga berish orqali foyda qilyapti.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020 йил 29 декабрь.
2. В. Jurayev. (tarj) "Islomiy moliya va bank tizimi", "O'zbekiston" Toshkent 2019y. 138-bet.
3. Мусаев Р.А., Магомедова Ю.Д. Тенденции развития исламских финансовых институтов в условиях глобализации в журнале Проблемы теории и практики управления, издательство ООО «Международная Медиа Группа» (Москва), № 11
4. Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>.
5. Rafik Yunus al-Misri. Fikkh imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320.